



## **XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI**

2022 - yil 25 - yanvar

VI-53-20-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi Xalq qabulxonasi tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlar tahlili to'g'risida**

2021-yil davomida Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar, yoshlar bilan uchrashuvlar, yoshlar bandligini ta'minlash, Obod qishloq bo'yicha qilingan ishlar, Ommaviy axborot vositalari bo'yicha, Mahallalarda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari bo'yicha, Davlat xizmatlari markazi faoliyati bo'yicha, kambag'allikni qisqartirish faoliyatining tanqidiy tahlili to'g'risidagi axboriti eshitilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Bulung'ur tumani Kengashining LIII sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bulung'ur tumanidagi Xalq qabulxonasi mutaxassisi S.Raximov 2021-yil davomida Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar, yoshlar bilan uchrashuvlar, yoshlar bandligini ta'minlash, Obod qishloq bo'yicha qilingan ishlar, Ommaviy axborot vositalari bo'yicha, mahallalarda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari bo'yicha, Davlat xizmatlari markazi faoliyati bo'yicha, kambag'allikni qisqartirish faoliyatining tanqidiy tahlili to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 4 ta sektor rahbarlariga:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga qat'iy rioya qilinishini nazoratga olish;

sektor rahbarlari kelib tushayotgan dolzarb murojaatlarni inobatga olgan holda Xalq qabulxonalari bilan hamkorlikda qaysi qishloq, ovul, mahallalarda sayyor qabullar tashkil etishini belgilash;

har chorak yakuni bilan tumanda tashkil etilgan amaliy ishlar bo'yicha hokim, sektorlar, tashkilotlar va korxonalar rahbarlarining hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 27-dekabr kuni yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshiriladigan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar, yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni nazoratga olish;

“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan kam ta'minlangan, nogironligi mavjud, boquvchisini yo'qotgan, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga tushib qolgan oilalar, ishsiz ayollar, yoshlar, kambag'al oilalarga moddiy yordam ko'rsatilishida korrupsion holatlarni oldini olish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni sektorlar kesimida nazoratga olsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimining o'rinbosari – Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i (A.Xazratqulov) kambag'al oilalar sonini qisqartirish, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (M.Qurbonova) 3-bosqichda “Ayollar daftari”ga kiritilayotgan xotin-qizlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar, tuman hokimining o'rinbosari (A.Buriboyev) “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar to'g'risida sektorlar kesimida axborot berib borsin.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bulung'ur tumanidagi Xalq qabulxonasining axborotnomasini, Bulung'ur tuman Xalq deputatlari kengashining navbatdagi sessiyasida davlat organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar rahbarlari ishtirokida o'rganib chiqilishini tashkil etib, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Xalq qabulxonasiga ma'lumot taqdim etsin.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bulung'ur tumanidagi Xalq qabulxonasi har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar, yoshlar bilan uchrashuvlar, yoshlar bandligini ta'minlash, Obod qishloq bo'yicha qilingan ishlar, Ommaviy axborot vositalari

bo'yicha, mahallalarda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari bo'yicha, Davlat xizmatlari markazi faoliyati bo'yicha, kambag'allikni qisqartirish faoliyatining tanqidiy tahlili to'g'risida axborot berish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov) hamda tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Buriboyev, A.Xazratkulov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Mamadiyarova